



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

IMOM BUXORIY SABOQLARI

Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal



25
2000-2025 YOSHDA
JURNAL

2025/1



www.bukhari.uz

№1
2025

IMOM BUXORIY SABOQLARI

Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal



O'ZBEKISTON – MALAYZIYA: DINIY-MA'RIFIY SOHA RIVOJIDAGI HAMKORLIK ALOQALARINING YANGI DAVRI

Batafsil **BUKHARI.UZ** saytida

TAHRIR HAY'ATI

- Akmal SAIDOV – yuridik fanlari doktori, akademik
- Shayx Nuriddin XOLIQAQAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy
- Firdavs ABDUXOLIQOV – Islom sivilizatsiyasi markazi direktori, san'atshunoslik fanlari doktori
- Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor
- Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor
- Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor
- Baxtiyor TURAYEV – falsafa fanlari doktori, professor
- Baxtiyor KARIMOV – falsafa fanlari doktori, professor
- Ilhom SAIDOV – tarix fanlari doktori, professor
- Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor
- Zohidullo MINAVVAROV – siyosiy fanlar doktori, professor
- Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
- Nodirjon ABDULAHATOV – tarix fanlari doktori
- O'ktambek SULTONOV – tarix fanlari doktori
- Baxtiyor ERGASHEV – tarix fanlari doktori
- Amriddin BERDIMURODOV – tarix fanlari nomzodi
- Mahmud NASRULLAYEV – tarix fanlari nomzodi, dotsent
- Sarvar ABDULLAYEV – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
- Shahzod ISLOMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
- Otabek MUHAMMADIYEV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

- Ashirbek MO'MINOV – tarix fanlari doktori, professor (L.N. Gumilev nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti)
- Devin DeWeese – Indiana universiteti professori, yozuvchi (AQSH)
- So'nmez KUTLU – Anqara universiteti professori, ilohiyotchi (Turkiya)
- Ingeborg BALDAUF – Humboldt nomidagi Berlin universiteti professori (Germaniya)

IBXITM Ilmiy kengashining 2025-yil 26-fevraldagi 1-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya qilindi.



MUASSIS:

O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
**IMOM BUXORIY XALQARO
ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

Bosh muharrir:
Shovosil ZIYODOV

Muharrir o'rinbosarlari:
**Otabek MUHAMMADIYEV,
Sanjarbek DJUMANOV**

Musahhihlar:
**Anvar BOBOYEV,
Asliddin MUSTAFOYEV**

Sahifalovchi-dizayner:
Muhammadiqbol SHUKUROV

**Azim ZOYIROV,
Rustam MAHMUDOV**
olgan suratlardan foydalanildi.

*Jurnal O'zbekiston
Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi
Oliy attestatsiya
komissiyasining ilmiy
jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.*

*Maqolada keltirilgan
ma'lumotlar uchun
muallif mas'ul.*

Шовосил ЗИЁДОВ, Мавлуда КАРИМОВА. Марказий Осиё ҳудудида фаолият юритган муҳрканларга оид айрим маълумотлар.....3

ВАТАНИМИЗ ТАРИХИ

Нигора ЮСУПОВА. Ўзбекистон зиёратгоҳлари тарихига назар: “Шоҳ Мансур ва Шоҳ Носир” зиёратгоҳлари.....6

Shokir GOFFOROV. From the history of the madrasas of Uzbekistan.....8

Зухра АРИПОВА. Мисрдаги иккинчи туркий сулола - Ихшидийлар ҳақида.....14

Oybek KLICHEV. Buxoro amirligi hukumati-ning maxsus mirzaxonalari.....17

Шуқурилло УМАРОВ. Мовароуннахрга ислом динининг кенг ёйилиши ва унинг босқичлари.....21

Odiljon BOYNAZAROV. Identifying elements of medieval cultural development in the study of the Samanid dynastic mausoleum in Bukhara (IX-X centuries).....24

Nargiza SODIQOVA. Buxoro amirligida maorif sohasini isloh qilishda tatar ma'rifatparvarlari-ning roli.....27

Дилмурод КУЛМАТОВ. Зарафшон ҳавзаси аҳолиси этник таркиби шаклланишининг тарихий босқичлари.....32

Bobur TOJIYEV. XIX asrning birinchi yarmda Buxoro amirligi va uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti Aleksandr Byorns nigohida...36

Нодира САФИХОДЖАЕВА. Ўзбекистонда меҳрибонлик уйлари хайрия ва ҳомийликнинг ортиши.....40

АЖДОДЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИ

Нодиржон АБДУЛАХАТОВ. Хожа Аҳмад Ясавийнинг “Шаби Ялдо” муножоти.....46

Абдумалик ТҲҲИЧАЕВ. Имом Термизий бўйича Туркияда амалга оширилган илмий тадқиқотлар.....49

Нигора РАҲИМЖОНОВА. Маҳмудхўжа Беҳбудий диний қарашларида ислоҳ масаласи.....56

Lutfillo AXATOV. Mavlono Jomiy tasavvufiy-irfoniy qarashlari tahlili.....60

Хабибулло САГДИЕВ, Мухаммадбилол КАРИМОВ. Опора сунни среди суфиев из Исфохана.....64

Nurmuhammad MATKARIMOV. Mashhur qiroat imomlari: ularning hayoti va ilmiy merosi.....67

Abdulhay XUSHVAQTOV. Alloma Jaloliddin Suyutiy hayoti va uning ilmiy merosi.....71

Abubakr MUSTAFOYEV. Hanafiy mazhabida hadis rivoyat qiluvchi kishiga qo'yilgan shartlar.....75

НОДИР МАНБАЛАР

Ulug'bek IMOMOV. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari Samarqand tarixining xorijiy mamlakatlar tarixshunosligida yoritilishi.....81

ИСЛОМ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН

Илхомжон БЕКМИРЗАЕВ, Яҳё АБДУРАҲ-МАНОВ. Имом Бухорийнинг “Саҳиҳ”ларига нисбатан салбий фикрларга қарши фатволар ҳамда мазкур китобнинг маънавий ва жисмоний фойдалари борасидаги қарашлар...86

Жамшид ОЧИЛОВ. Замонавий техник кашфи-ётларнинг ислом манбаларида баён этилиши.....89

Муслим АТАЕВ. “Етти Қози” феноменининг моҳияти ва ислом оламидаги нуфузи.....93

Hikmet GÜLTEKİN. Абу Бакр Муҳаммад ибн Абу Исҳоқ ал-Ғулбодий ва ҳадис ҳикояси.....101

ИЖТИМОИЙ ИНСТИТУТ

Xurshida BOBOQULOVA, Gulnigor IBRAGIMOVA. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati tarixini o'rganish va tahlil qilsh.....106

Maftuna RAJABOVA. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining yangi bosqichida diniy bag'rikenglikni ta'minlash masalalari.....111

Беҳзод СОИПОВ. Диний бағрикенглик сиёсатини олиб бориш бўйича ривожланган давлатлар тажрибаси.....114



ФАЛСАФИЙ МУШОҶАДАЛАР

Shaxlo SAMANOVA. Tabiat va inson munosabatlarida ma'naviy-axloqiy begonlashuvni oldini olishning muhim jihatlari....118

Бахтиёр ТУРСУНОВ. Сукрот фалсафасида комил инсон концепциясининг рационал талқини.....121

Adxamxo'ja ABDULLAHO'JAYEV. "Qarz" musaddasining tarixiy va zamonaviy kontekstdagi ijtimoiy-falsafiy tahlili.....124

Hulkar RAJABOVA. Qissalarda realistik ruhiyat talqini (Xoliyor Safarovning "Qanotsiz qushlar" qissasi misolida).....129

МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ

Отабек МУҲАММАДИЕВ. Хадисларни инкор этиш сабаблари ва оқибатлар.....132

Аловуддин ФАХРИДДИНОВ. Киссавурлик жиноятини фош этишнинг тарихий шаклланиши.....140

Улуғбек НАСРИТДИНОВ. Миграция жараёнида ёт ғоялар таъсирига тушиб қолган шахслар портрети.....147



минлаб, илм-фан ривожига ҳисса қўшган. Бу даврда қўлаб олимлар етишиб чиққан ва уларнинг мероси бугунгача сақланиб қолган. Уларнинг ҳар бири ўз соҳасига муҳим ҳисса қўшган ва тарихда из қолдирган.

Аббосий халифаларга расман бўйсунувчан бўлган Ихшидийлар бир томондан Сурия ҳудуди учун ҳам-данийларга қарши курашган бўлса, бошқа томондан Мисрнинг ғарбида шиа-фотимийларнинг шарққа кенгайишига ўттиз тўрт йил давомида тўсқинлик қила олди.

Муҳаммад ибн Туғждан кейин расмий давлат раҳбарлари туркий бўлган. Туркий давлат бўлишига қарамай, уни ўттиз тўрт йиллик умрининг йигирма икки йилида амалда озод қул Абу Миск Кафур бошқарган. Аммо шунга қарамай, давлат, айниқса, армиядаги улуши туфайли ўзининг туркий хусусиятини йўқотмади.

Шимолий Африкани бошқариб келадиган Фотимийлар Мисрни забт этишга интилган. Улар Кафур Ихшид вафотидан сўнг Мисрни қўлга киритган ва 969 йилдан у ерда Фотимийлар бошқаруви бошланган. Улар Мисрда тахтни эгаллагач, ўз ҳокимиятини мустаҳкамлаш мақсадида катта қўшинга эҳтиёж ошиб борган. Шунга қўра, Фотимийлар ўз қўшинига туркийлардан ташқари курд, дайламий ва ҳатто, жангларда асир тушган ғарбий юртлардан келтирилган қўлларни ҳам жалб этган.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Абу Умар Муҳаммад ибн Юсуф Киндий. Китоб ал-вилат ва китоб ал-қудат. – Байрут, 1908.
2. Босворт К.Э. Мусулманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. /Пер. с англ. П.А.Грязневича. – М.:Наука, 1971. – С.324.
3. Жалолиддин ибн Муҳаммад ас-Суютий. Китоб хусн ал-муҳадара би ахбор Миср вал Қоҳира. / Муҳаққиқ Муҳаммад Абу Ал-Фадл Иброҳим. – Қоҳира: Дор ихъа ал-кутуб ал-арабия, 1967. – 1281 б.
4. Ибн ал-Асир Али ибн Аҳмад. Ал-Комил фи-т-тарих. – Қоҳира: Дор ал-Кутуб ал-Мисрия, 1987.
5. Ибн Тағриберди Абу ал-Маҳосин. Китоб ан-нужум аз-зоҳира фи мулук Миср вал Қоҳира. Жилд 3. – Лубнон: дор ал – кутуб ал-илмия, 1992.
6. Kazım Yasar Kopruman. İhşidiler, Doğuştan Günümüze Büyük İslam Tarihi (Editör: Hakkı Dursun Yıldız). – İstanbul, 1992, VI. – S.194.
7. Nadir Özkuyumcu. İhşidiyları // Türkler. – Ankara: Yeng türkçe yayınlari, 2002. – S.42.
8. Тақий ад-Дин ал-Мақризий. Китоб ал-мавоиз ва ал-и'тибор би-зикр ал-хутат ва ал-осор. Ж.1.. – Булоқ: Кастон Виит, 2002. – Б.325-328.
9. Фильштинский И.М. История арабов и халифата (750-1517) – М.: 2006.
10. Ҳасан Иброҳим Ҳасан. Тарих ал-исломий. 4 жилдли, – Байрут: Дор ал-ма'ориф, 1991.

Oybek KLICHEV

Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc)

BUXORO AMIRLIGI HUKUMATINING MAXSUS MIRZAXONALARI

Annotatsiya: Davlatlararo munosabatlarda maktub almashuvi muhim vosita hisoblanadi. Hukumatlararo xatlarni tayyorlash, tarjima qilish ishlarida devonxona xodimlari faoliyati e'tiborga molikdir. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi davlat boshqaruvi tizimida bir nechta devonxonalar mavjud edi. Ular orasida bevosita Rossiya imperiyasi bilan davlatlararo yozma muloqotni olib borish ishida ikkita maxsus mirzaxona-devonxonalar alohida o'rin tutgan. Ushbu maqolada maxsus mirzaxonalar va ulardagi xodimlar to'g'risida ma'lumot berilgan. **Tayanch so'zlar:** mirza, oliy maktub, tarjimon, mirzaxona, qushbegi, passport, madrasa.

Annotation: In interstate relations, the exchange of letters is an important tool. The work of the Office staff in preparing and translating intergovernmental letters deserves attention. In the second half of the 19th and early 20th centuries, there were several departments in the public administration system of the Bukhara Emirate. Among them, two special mirzkhans, devankhans, occupy a special place in the work of conducting an interstate written dialogue directly with the Russian Empire. This study will focus on special chancellors and their staff. **Keywords:** mirza, higher education, translator, Mirza koshbegi, passport, madrasah.

Аннотация: В межгосударственных отношениях обмен письмами является важным инструментом. Заслуживает внимания работа сотрудников канцелярии по подготовке, переводу межправительственных писем. Во второй половине XIX – начале XX веков в системе государственного управления Бухарского эмирата существовало несколько ведомств. Среди них, в работе по ведению межгосударственного письменного диалога непосредственно с Российской империей, особое место занимают две особые мирзханы-деванханы. В этом исследовании речь пойдет об особых канцелярии и их сотрудников. **Ключевые слова:** мирза, высшее образование, переводчик, Мирза кошбеги, паспорт, медресе.

Kirish. So'nggi yillarda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari Buxoro amirligi davri tarixini tadqiq etishga intilgan tadqiqotchilar asosan Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi hamda amirlik qushbegisi devonxonasi hujjatlariga murojaat etmoqdalar. Bu albatta ijobiy va shu bilan birga tadqiqotchilar uchun birlamchi qadam hisoblanadi. Shu o'rinda mazkur masalani mintaqa doirasida o'rganishda Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy

agentligi devonxonasi hujjatlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Buxoro amirligi qushbegisi vazoratxonasi tizimiga kiruvchi maxsus devonxonasi bilan birga, Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligida ish yuritgan alohida amirlik devonxonasi xususida ma'lumotlarni ilmiy adabiyotlarda uchratish mushkul. Shuning uchun ham amirlikdagi devonxona tizimi tarixidagi bu kabi muassasalarni o'rganishni o'z ol-dimizga maqsad qildik.



Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligida faoliyat yuritgan devonxonalar faoliyatiga daxldor ma'lumotlarning aksariyati yurtimizdagi hujjat jamg'armalarida saqlanmoqda. Ma'naviy merosimizni o'rganish orqali davlatchilik an'alarimiz, xususan, boshqaruv tizimini tadqiq etish o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Bevosita birlamchi ilmiy qiymatga ega arxiv hujjatlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, tadqiq etilayotgan muammoga oid ma'lumotlar O'zbekiston Milliy arxivining I-1, I-3, I-126 hamda R-2678 fondlaridagi yig'majildlarda jamlangan. Amirlik hukumatining diplomatik xizmatida maxsus mirxaxonalar, ulardagi ish yuritish tizimi, faoliyat yuritgan mirzo, munshiylar bilan bog'liq qaydlar I-126 fondidagi 382-yig'majilda, I-3 fondning 1-ro'yxat, 653 hamda shu fondning 2-ro'yxat, 134, 142, 267, 357, 474, 737, shu bilan birga I-1-fond, 1-ro'yxat, 45 yig'majildlarida saqlanmoqda. Mazkur yig'majildlarda o'rin egallangan hujjatlar ilmiy muomalaga kiritildi. Qolaversa, amirlikdagi maxsus devonxonalar va undagi xodimlar faoliyati, ish yuritish tizimi natijasida shakllangan hujjat – yig'majildlar XIX asr ikkinchi yarmi – XX boshlarida O'rta Osiyo mintaqasida diplomatik munosabatlar tarixini tadqiq etish uchun qimmatli manba vazifasini bajaradi. Zero, tarixchilar uchun manba, uni yaratgan shaxs yoki muassasa faoliyati, qolaversa, uning yuzaga kelishiga xizmat qilgan sharoitni o'rganish birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda xronologik izchillik, muammoviy hamda qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda qo'yilgan masalalar xolislik hamda tarixiylik tamoyillariga tayangan holda o'rganilmoqda.

Tahlil va natijalar. Manbalarda Buxoro arkida yuqori qushbegi tasarrufidagi "Mirzaxonai kalon" faoliyat yuritgani to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Ushbu devonxona vazaratxona tarkibiga kiruvchi ikkita devonxonadan tashkil topgan[1]. Ularning bittasi mamlakat xazinasidagi oltin, xiroj mablag'lari va tushumlarning sarhisobi va turli xildagi xarajatlarni amalga oshirish bilan; ikkinchisi esa beklklar bilan munosabatga kirishish hamda xorijiy mamlakatlarga chiqish uchun amirlik fuqarolariga pasport(ruxsatnomalar)ni taqdim etish bilan shug'ullangan.

Mirzaxonai kalon - yuqori qushbegi hovlisidagi xonalarda joylashgan. U xazina kirim va chiqim xarajatlarini amalga oshirgan. Ushbu devonxonada 10 nafar mirza faoliyat yuritardi. Amirning mamlakat bo'ylab safarlarida ushbu devonxonadan uchta mirza jalb qilingan. Ularning biri hisob amaliyotini, ikkinchisi mablag'larni qabul qilish va safar xarajatlari ro'yxatini

olib borish, uchinchisi esa mablag' ajratish ishlari bilan shug'ullangan.

Qushbegi hovlisida joylashgan ikkinchi devonxonada ham 8-10 nafar mirza ishlar edi. Devonxonalarda alohida-alohida mirzaboshilar tayinlangan va qushbegiga hisobot berib turgan. Ushbu devonlarni mirzoi kalon - bosh mirza boshqargan. Devonbegi, ya'ni quyi qushbegi devonxonasi Ark qo'rg'oni etagida joylashgan edi. U yana havli-i poyon - ya'ni quyida joylashgan hovli deb ataladi.

Yuqori qushbegi va Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligi o'rtasidagi yozishmalar bilan maxsus mirzaxonada devonxona shug'ullangan. Ushbu devonxona arkning sayisxona hovlisi tarkibiga kiruvchi xonalarda joylashgan edi. Devonxona ikki xonadan iborat bo'lib, uning birinchisida mirzalar, ikkinchisida esa daftardor hamda mirzoi munshiy faoliyat yuritgan [2].

Qushbegi devonxonasi tarkibiga kirgan maxsus mirzaxonada faoliyat yuritgan tarjimon mirzalar ham hukumatlararo maktublarni tayyorlashda muayyan o'rin egallagan. Jumladan, amirlik hukumati maktublarini tarjima qilish va ularni siyosiy agentlikka yo'llash tarjimon mirzalarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanardi. Arxiv hujjatlarida ushbu lavozimda Iskandar Ahmedov, Abdulg'ani Abdumutalipov, Said Gerey Subxonqulov va Davlat Murodovlar faoliyat yuritgani xususida ma'lumotlar mavjud.

Kelib chiqishi Toshkent shahridan bo'lgan Abdulg'ani Abdumutalipov 1915-yil 1-noyabrda e'tiboran oyiga 90 rubl maosh evaziga Buxoro amirligi devonxonasida tarjimon sifatida ish boshlaydi. U dastlab tarjimon, so'ngra esa maxsus mirzaxonani boshqaradi. Rus, fors, arab tillarini bilgan [3]. 1916-yilgi mardikorlikka olish kompaniyasi davrida u Sirdaryo viloyatining fuqarosi sifatida mardikorlikka jalb qilinadi. Qushbegi uning malakali xodimligini e'tirof etgan holda mardikorlikka olishdan ozod qilishni so'rab siyosiy agentlikka murojaat qiladi [4]. Mavjud yozishmalar Abdulg'ani Abdumutalipov 1916-yil 26-oktyabrda mardikorlikka olishdan ozod etilganini ko'rsatadi.

Mirzaxonadagi tarjimonlar orasida Ahmedov Iskandar Usmonovich ham faoliyat yuritgan. U 1910-yilda Mirzo Nasrullobiy qushbegi taklifi bilan mirzaxonada ish boshlaydi va yetti yillik faoliyati davomida mirzaxonada tayyorlangan maktublarning tarjimasini amalga oshiradi. Buni qushbegi maktublarining tarjima qismi oxirida "Mirzo Iskandar jevochi" degan yozuv ham tasdiqlaydi.

Mirzaxonada faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni o'rganish natijasida u yerda faoliyat yuritgan tarjimon mirzalar oyiga 80-100 rubl miqdorida maosh olgani aniqlandi.



Mazkur masalaga daxldor yozishmalar tahlil etilganda Turkiston general-gubernatorligi fuqarolari Buxoro amirligidagi maxsus mirzaxonada tarjimon sifatida ishlashga ruxsat berish xususida siyosiy agentlikka murojaat qilganliklari to'g'risida ma'lumotlar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Amirlikdagi mavjud tartib va qoidalarga binoan ushbu lavozimga xodimlarni tayinlash amir hukumatining vakolat doirasiga kirgan. Siyosiy agentlik esa bu lavozimga nomzodlarning hujjatlarini taqdim etish va bu xususida qushbegining fikrini bilish huquqiga ega edi [5].

Mazkur masalada siyosiy agent va amirlik qushbegisi o'rtasida yozishmalar olib borilgan. Siyosiy agent va qushbegi o'rtasidagi yozishmalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ayrim shaxslarning siyosiy agent nomiga o'zini qushbegi devonxonasi tarjimoni lavozimiga tavsiya etishni so'rab yuborgan iltimosnomalari ko'p hollarda ijobiy hal etilmagan. Bu hol amir hukumati mazkur lavozim uchun munosib vakillarni o'zi tanlaganini ko'rsatadi.

Shu o'rinda bevosita Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligi devonxonasida bosh, birinchi va ikkinchi kichik yozma tarjimon deb nomlangan lavozimlar joriy etilganini ta'kidlash joiz. Ularda mahalliy aholi vakillari ham faoliyat olib borgan. Bu kabi xodimlar asosan rus tilida yuritilgan rasmiy idoraviy hujjatlarni mahalliy tillarga tarjima qilish bilan shug'ullangan. Siyosiy agentlikning faoliyati davomida bosh tarjimon lavozimida uzoq yillar davomida Abdullov Axmad Gerey faoliyat olib boradi [6]. Abdullov Axmad Gerey 1869-yilda tug'ilgan va siyosiy agentlikda 1900-yil 25-noyabrdan o'z faoliyatini boshlagan. Orenburgdagi o'qituvchilar maktabini bitirgan. 1902-yili Buxoro amirining 2-darajali kumush yulduz ordeni bilan taqdirlanadi. 1910-yili Buxoro amiri (Abdulahadxon)ning 25 yillik hukmronligiga atab chiqarilgan yubiley medali sohibi. Romanovlar sulolasining 300 yilligi munosabati bilan 1913-yilda chiqarilgan yubiley medali egasi. U o'z faoliyatini keyinchalik amirlikda tashkil etilgan Rossiya rezidentligida ham davom ettiradi [7].

Devonxonada kirill grafikasidagi hujjatlarni arab grafikasiga tarjima qilish bilan shug'ullanuvchi ikki tarjimon mirza: katta mahalliy yozma tarjimon Ahmadbek Rahimbekov va kichik mahalliy yozma tarjimon G'ulom Haydar Nasrullaboyev ham ish olib borgan [8].

Ahmadbek Rahimbekov 1868 yilda tug'ilgan. Siyosiy agentlikda 1887-yildan o'z faoliyatini boshlagan. Eski Buxorodagi madrasada o'qigan. Arxiv ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, Ahmadbek Rahimbekov 1899-yilda Buxoro amirining 3-darajali, 1901-yilda 2-darajali kumush yulduz ordeni bilan

taqdirlanadi. 1910-yili Buxoro amiri (Abdulahadxon)ning 25 yillik hukmronligiga atab chiqarilgan yubiley medali sohibi. Shuningdek, Romanovlar sulolasining 300 yilligi munosabati bilan 1913-yilda chiqarilgan yubiley medali bilan ham mukofotlangan [9].

Ikkinchi tarjimon mirzo G'ulom Haydar Nasrullaboyev 1888-yilda tug'ilgan. Siyosiy agentlikda 1907-yil 7-maydan o'z faoliyatini boshlagan. Eski Buxorodagi madrasada o'qigan. 1911-yilda Buxoro amirining oltin medali bilan taqdirlangan. Romanovlar sulolasining 300 yilligi munosabati bilan 1913-yilda chiqarilgan yubiley medali sohibi hisoblangan [10].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligida ham amirlik hukumatining devonxonasi tashkil etiladi. Bu devonxona agentlik binosida joylashgan bo'lib, amirlik hukumati nomiga yo'llanadigan maktublarni tarjima qilish hamda o'zaro yozishmalarni olib borish ishlarini amalga oshirgan. Ushbu muassasada amir hukumatining ikki amaldori faoliyat olib borgan. Ulardan biri to'qsabo Mirzo Mahmud Musaxo'ja bo'lib, u Buxoro amirining agentlikdagi amaldori vazifasini bajarardi. U ikki mamlakat o'rtasida olib boriladigan yozishma va davlatlararo munosabatlarni amalga oshirish uchun mas'ul shaxs hisoblangan [11]. Bu lavozimga amirga yaqin kishilar tayinlangan. Mirzo Mahmud Musaxo'ja bu lavozimda uzoq vaqt faoliyat olib boradi. Faqat 1914-yilda amirlik hukumati uning o'rniga Mirzo Malik miroxo'ni tayinlaydi [12].

Amirning siyosiy agentlikda faoliyat olib borgan ikkinchi amaldori Mirbadalov Mir Haydar Qosimovichdir. U Orenburgda yashovchi buxorolik shaxs oilasida tug'ilgan. Uyezd bilim yurti(uchilishi)ni bitirgan. 1880-yildan Zarafshon viloyati Kattaqo'rg'on bo'limi boshqarmasida tarjimon. 1886-yildan siyosiy agentlikda katta yozma tarjimon lavozimida ishlay boshlaydi. "Buxoroi sharif" gazetasining mas'ul muharriri. 1880-yilda 3-darajali, 1904-yilda 2-darajali Stanislav ordeni, 1897-yilda 3-darajali, 1910-yilda 2-darajali Anna nomidagi ordenlar bilan taqdirlangan.

Amirning ushbu amaldori siyosiy agentlik tarkibiga kirgan Buxoro amirligi devonxonasi boshqaruvchisi vazifasini bajarardi. Bu lavozimdagi xodimni ishga tayinlash yoki unga tegishli sabablarga asoslanib mehnat ta'tili muddatini belgilash masalasi siyosiy agentlik va amir qushbegisi o'rtasida olib borilgan yozishmalar asosida hal etilgan [13].

Garchi M.Mirbadalov siyosiy agentlikda faoliyat olib borgan bo'lsa-da, u bevosita amir ko'rsatmalariga rioya qilgan holda mahalliy aholi bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish va amirlikning siyosiy agentlikdagi devonxonasini boshqarish bilan shug'ullanar edi.

Tadqiqotda 1904-yilda Rossiya imperatori tomonidan Buxorodagi siyosiy agentlikda devonxona xodimla-



ri uchun alohida bino ajratilgani qayd etiladi [14]. Siyosiy agentlik binosi hovlisida bir qavatli alohida bino qurilib, uning ta'minoti imperiya hukumatining mablag' ajratmasi asosida amalga oshirilgan.

Arxiv hujjatlarini o'rganish jarayonida, siyosiy agentlikda Buxoro hukumati devonxonasi uchun bino ajratish masalasi ham ko'tarilgani ma'lum bo'ldi. Tahlillar bino qurilishi uchun amir 13000 rubl miqdorida mablag' ajratganini ko'rsatmoqda [15]. Bu miqdordagi mablag' ajratilgani xususidagi ma'lumot 1916-yil 9-sentyabrda siyosiy agentning amirlik hukumatining siyosiy agentlikdagi devonxona boshqaruvchisi Mirbadalov Mir Haydar nomiga yo'llagan xatida o'z aksini topgan. Bu hol amirlik hukumati o'zining rasmiy idoraviy muassasalari faoliyatiga alohida e'tibor qaratganini ko'rsatadi. Chunki agentlikda tashkil etilgan amir hukumat devonxonasi ikki mamlakat munosabatlariga oid hujjatlarni yuritish ishida muhim bo'g'inlardan biri hisoblangan.

Tadqiqot jarayonida siyosiy agentlik devonxonasi va qushbegi devonxonasi o'rtasida devonxona faoliyati kunlari rejalarining o'zaro almashilganlik holati mavjudligi aniqlandi. Bu kabi tadbirlar asosan agentlikka yangi siyosiy agent tayinlangan paytda amalga oshiriladi edi. Jumladan, ushbu masala yuzasidan siyosiy agent A.Ya.Miller 1916-yil oktyabrda qushbegiga murojaat qilib, uning devonxonasi uchun o'zining 17-oktyabrda ishlab chiqqan siyosiy agentlikdagi qabul kunlari ro'yxatining besh nusxasini

yuborishini bildiradi [16]. Siyosiy agent tomonidan qabul kunlarining ishlab chiqilishi va bu haqda amirlik hukumatiga bildirilishi qabul jarayonlarini tartibga solish maqsadida amalga oshirilgan tadbir hisoblanadi. Siyosiy agentlik devonxonasi ikki mamlakat o'rtasida ko'tarilgan masalalarni hal etishda muhim bo'g'in vazifasini bajargani bilan ham ahamiyatlidir. Rossiya imperatori siyosiy agentligi 1917-yilning martidan e'tiboran Rossiya rezidentligiga aylantiriladi. Rezidentlik ham qushbegi devonxonasi bilan rasmiy yozishmalar olib borishni davom ettiradi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslanib, rasmiy hukumatlararo yozishmalarni olib borishda siyosiy agentlik va amir qushbegisi rahbarligidagi devonxonalarning o'rne muhim. Shu o'rinda amirlik qushbegisi vazoratxonasi tizimiga kiruvchi ikki maxsus mirzaxona – devonxonalarning tashkil etilganligini alohida qayd etish joiz. Zero, oliy darajadagi maktublarni tayyorlash hamda ularning tarjimasi davlatlararo muloqot va munosabatlar dinamikasiga ta'sir etmasdan qolmagan. Shuning uchun ham maxsus mirzaxonalarning ish tartibi, mirzaxona xodimlarini ishga qabul qilish kabi masalalarda amirlik ma'murlari ehtiyotkorlik bilan ish ko'rgan. Mirzaxonalarning mehnat mahsuli ham o'z davrida, ham bugungi kunda amirlik davri tarixini o'rganishni maqsad qilgan tadqiqotchilar uchun zarur muhim ma'lumotlarni taqdim etishi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Milli arxivi (keying o'rinlarda – O'z MA), R-2678-fond, 1-ro'yxat, 448-yig'majild, 137-varaq.
2. Андреев М.С. Чехович О.Д. Арк Бухары в конце XIX – начале XX вв. – Душанбе: Изд-во Дониш, 1972 .
3. O'z MA, I-3-fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 7-varaq.
4. O'z MA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 737-yig'majild, 152-varaq.
5. O'z MA, I-3-fond, 1-ro'yxat, 653-yig'majild, 26-28-varaqlar.
6. O'z MA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 357-yig'majild, 49-50-varaqlar.
7. O'z MA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 134-yig'majild, 15-16-varaqlar.
8. O'z MA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 267-yig'majild, 4-5-varaq.
9. O'z MA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 357-yig'majild, 51-52-varaqlar.
10. O'z MA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 357-yig'majild, 51-52-varaqlar.
11. O'z MA, I-1-fond, 1-ro'yxat, 45-yig'majild, 247-varaq.
12. O'z MA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 134-yig'majild, 30-varaq.
13. O'z MA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 134-yig'majild, 9-10 varaqlar.
14. O'z MA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 142-yig'majild, 131-133-varaqlar.
15. O'z MA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 474-yig'majild, 156-varaq.
11. O'z MA, I-126-fond, 2-ro'yxat, 382-yig'majild, 1-varaq.





MALAYZIYA VA O'ZBEKISTON ILMIY-TADQIQOT MUASSASALARI O'RTASIDAGI HAMKORLIK YANGI BOSQICHGA KO'TARILADI

Batafsil **BUKHARI.UZ** saytida

2025-YIL UCHUN JURNALIMIZGA OBUNA DAVOM ETMOQDA!

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi rekvizitlari:**
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi
H/r: 23402000300100001010
INN (STIR): 201122919 **MFO:** 00014
Markaziy bankning Toshkent shahar XXXKM
SHHV: 400110860182247015100253001
INN (STIR): 207265166
Murojaat uchun telefon: (0366) 240 2019



**Obuna
indeksi -
№ 946, 947
Bir yillik
obuna narxi -
360 000
so'm**



MANZILIMIZ:
141306, Samarqand viloyati,
Payariq tumani, Xo'ja Ismoil shaharchasi.

E-mail: buxoriysaboqlari@bukhari.uz
Web-sahifa: www.bukhari.uz
Telefonlar:
(0366) 240-2019, (0366) 240-2011,
(+99899) 735-02-85

Bosishga 24.03.2024 yilda ruxsat berildi.
Qog'oz bichimi - 60x84 1/8.
Ofset bosma usulida bosildi.
Bosma tabog'i - 10. Adadi - 150.
Buyurtma № 14/12.
Nashr indeksleri - № 946, № 947.
ISSN 2181-4791

Jurnal 2019-yil 8-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№ 0057 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Tahrir hay'atining fikri muallif fikridan farq qilishi mumkin.


Jurnal andazasi tahririyatning kompyuter bo'limida
tayyorlandi.

Jurnal «SHABNAM SUPER PRINT» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Samarqand shahri, Ziyokorlar ko'chasi, 1-uy.
Tel.: (+99890) 104-13-33.

DUNYODA ILMDAN BOSHQA NAJOT YO'Q VA HECH QACHON BO'LMAGAY.

Imom Buxoriy



Telegram: @bukhariuz | @buxoriysaboqlari



E-mail: buxoriysaboqlari@bukhari.uz